
Chuburg'on mahallasida bayram ko'tarinki ruhda nishonlandi

Yurtimizda bayramlar ko'p. Bu bayramlar orasida bahorning ilk kunlarida nishonlanadigan Navro'z bayrami alohida o'rin tutadi. Chunki, sharqona yangi yil - Navro'z bayrami ezgulik, bahrikenglik, halollik, pokizalik, bunyodkorlik fazilatlarini o'zida mujassam etadi. Insonlar o'rtasida ushbu yuksak tuyg'ularni keng targ'ib qilish bilan umuminsoniy ahamiyatga ega.

Ayni kunlarda tumanimizning xar bir mahallasida Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan milliy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi bayram tantanalari bo'lib o'tmoqda. Chuburg'on mahallasida o'tkazilgan tadbirga tashrif buyurgan mehmonlar betakror va unutilmas taassurotlarga ega bo'ldilar. Navro'z tantanalari tumanimizning barcha mahallalarida davom etmoqda.

2023-03-16 06:23:09